



**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ
КАФЕДРА КОММУНАЛЬНОЙ ГИГИЕНЫ И ГИГИЕНЫ ТРУДА,
ЭКОЛОГИИ
ЧУВАШСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМ. И.Я. ЯКОВЛЕВА
КАЗАХСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ С.Д. АСФЕНДИЯРОВА**

**Сборник научных работ
Международная научно-практическая конференция
*«Достижения профилактической медицины как
основа сохранения здоровья и благополучия
населения в современных условиях»*
15 апреля 2026 года**



ТАШКЕНТ - 2026

Международная научно-практическая конференция
***«Достижения профилактической медицины как основа сохранения
здоровья и благополучия населения в современных условиях»***

**МИНИСТЕРСТВО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ
КАФЕДРА КОММУНАЛЬНОЙ ГИГИЕНЫ И ГИГИЕНЫ ТРУДА,
ЭКОЛОГИИ
ЧУВАШСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМ. И.Я. ЯКОВЛЕВА
КАЗАХСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ С.Д. АСФЕНДИЯРОВА**



Международная научно-практическая конференция
***«Достижения профилактической медицины как
основа сохранения здоровья и благополучия
населения в современных условиях»***

*Сборник материалов международной научно-практической
конференции, состоявшейся 15 марта 2026 года в Ташкенте*

ТАШКЕНТ – 2026

Международная научно-практическая конференция
«Достижения профилактической медицины как основа сохранения
здоровья и благополучия населения в современных условиях»

Yuqorida olingan natijalarga asoslanib quyidagilarni aytish mumkin “Yer malhami” bioo‘g‘itini qishloq xo‘jaligida qo‘llanilganda tuproq muhitni birinchi va ikkinchi kunlari boshqa kunlarga nisbatan ko‘proq ifloslantirgan. Ishlov berilgan dala chetidagi tuproqda oxirgi kunlari preparatning qoldiq miqdori aniqlanmadi. Atmosfera havosida ham birinchi kunlari qoldiq miqdori aniqlangan bo‘lsa keyingi kunlari aniqlanmadi. Umuman olganda esa preparat tuproq muhitini kam darajada qisqa vaqt davomida ifloslantirishi aniqlandi.

TASHQI MUHITNI IFLOSLANISHIDA AVTOTRANSPORT
AHAMIYATI

Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Toshmatova G.A., Ikromova N.A.,
Yermatova S.G.

ToshDavTU Atrof muhit gigiyenasi kafedrası

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Hozirgi kunga kelib insoniyatning atrof-muhitga ta’siri tobora kuchayib bormoqda, natijada hayotni doimiyligini ta’minlaydigan asosiy jarayon ya’ni tabiiy muvozanatni buzilishiga, yer yuzasining ko‘pgina hududlarida noqulay ekologik sharoitlarning paydo bo‘lishiga, mahalliy, mintaqaviy va global darajadagi ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Atmosfera havosi tabiiy resurslarning tarkibiy qismi sifatida umummilliy boylik hisoblanadi va davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Hozirgi davrda inson salomatligi uchun eng xavfli manbalardan biri avtotransport vositalaridan chiqadigan zaharli gazlardir.

Avtomobillar atmosfera havosini har xil zaharli gazlar bilan ifloslashidan tashqari dunyo aholisining nafas olishiga ketadigan kisloroddan 3-4-marta ko‘p kislorodni sarflaydi. Hozir jahon mamlakatlarida 500 mln. dan ortiq avtomobil borligi nazarga olinadigan bo‘lsa, atmosfera havosiga chiqarib tashlanadigan iflosliklar miqdori juda katta ekanligiga ishonch hosil qilsa bo‘ladi. Avtotransport

Международная научно-практическая конференция
«Достижения профилактической медицины как основа сохранения
здоровья и благополучия населения в современных условиях»

vositalari atmosfera havosini azot oksidi bilan 45,7%, uglevodorodlar bilan 42% zararlantiradi.

Yer yuzidagi jami bir yilda havoga chiqarib tashlanadigan 100 mln. tonnaga yaqin is gazining 75,5 mln. tonnasi yoki 78% avtotransport vositalariga to'g'ri keladi. Shaharlar havosining 60% zaharli gazlar bilan ifloslanishi avtotransport hisobiga to'g'ri keladi. Transport vositalarining kundan kunga ko'payib borishi, qudratli mexanizmlarning yaratilishi va undan keng ko'lamda foydalanish saxovatli tabiatga, shu jumladan atmosfera havosiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning buzilishiga sabab bo'lmoqda. Xorijiy mamlakatlar atmosfera havosini ifloslantiruvchi gazlar ichida is gazi, uglevodorodlar, shuningdek, azot oksidlari barcha tajovuzkor gazlarning 60% ini tashkil qilsa, bizda 14% ini tashkil qiladi. O'zbekistonda har 1000 kishiga o'rtacha 84 ta avtomobil to'g'ri keladi, ushbu ma'lumotlarni boshqa davlatlarga solishtirganda AQSHda har 1000 kishiga 910ta, Avstraliyada 740 ta, Italiyada 625 ta, Yaponiyada 591 ta, Rossiyada 369 ta Qozog'istonda 250 ta avtomobil to'g'ri keladi. So'nggi 10 yilda poytaxtda avtomobillar soni ikki baravardan ziyodroqqa oshgani vaziyatni tobora murakkablashtirmoqda.

Markaziy Osiyo atmosferasining o'ziga xos jihatlari, ushbu hududning iqlimiy tavsiflanishini belgilab beruvchi fizik-geografik sharoitlar (dengiz sathidan 200-250 m balandlikdagi cho'llar, yarimcho'llar, 3500-3600 m balandlikdagi tog'li tizimlar)ning ma'lum bir darajasiga bog'liq bo'ladi. Tekislik hududlari sovuq kirishi uchun ochiq bo'lgan Turon pasttekisligining katta qismini egallaydi, bu esa, keskin mintaqaviy-iqlimiy jihatlarni shakllantiradi. Boshqa tomondan, Atlantika okeanining o'rtamiyona kengliklaridan vaqti-vaqti bilan nam havoning g'arbiy, shimoliy-g'arbiy oqimlarining kirib kelishi kuzatiladi, bu ham atmosferaning sifati va miqdoriy jihatlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Toshkent shahrida bir kunda o'rtacha 730 mingta transport vositalari harakatlanadi, viloyatlardan shaharga 160 mingdan 300 minggacha transport vositalari kirib keladi. Ularning aksariyati past sifatli yonilg'idan foydalanadi.

Международная научно-практическая конференция
«Достижения профилактической медицины как основа сохранения
здоровья и благополучия населения в современных условиях»

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz Toshkent shahri atmosfera havosining ekologo-gigiyenik xolatini 2017-2020-yillar dinamikasida retrospektiv taxlil qilish va sanitariya holatini baxolashni maqsad qilib oldik. Aholi turar joylaridan atmosfera havosining kimyoviy ifloslanish uchun 2018-2020-yillar dinamikasida olingan namunalar va SanQ va M. Shahar atmosfera havosidan 2017-yil umumiy olingan namunalar soni - 1902 ta (100%), ulardan - 263 tasi (13,8%), 2018-yil umumiy olingan namunalar soni - 1950 ta (100%), ulardan -323 tasi (16,5%), 2019-yil umumiy olingan namunalar soni - 1677 ta (100%), ulardan - 198 tasi (11,8%), 2020-yil umumiy olingan namunalar soni - 973 ta (100%), ulardan - 130 tasi (13,3%) gigiyenik talablarga javob bermagan.

Tekshirilgan namunalarning ifloslantiruvchi moddalarga nisbatan tahlil qiladigan bo'lsak: 2017-yil changga umumiy - 416 ta namuna olingan bo'lib ulardan - 115 tasi ya'ni 27,5%, 2018-yil changga umumiy - 404 ta namuna olingan bo'lib, ulardan - 141 tasi - 34,9%, 2019-yil changga umumiy - 370 ta namuna olingan bo'lib ulardan - 83 tasi 22,4%, 2020-yil changga umumiy - 290 ta namuna olingan bo'lib, ulardan - 55 tasi (18,9%) gigiyenik me'yorlarga mos kelmagan. Oltinugurt gaziga 2017-yil - 416 ta namuna olingan ulardan - 75 tasi (18,0%), 2018-yil - 436 ta namuna ulardan - 89 tasi (20,4%), 2019-yil - 330 ta namuna olingan ulardan - 62 tasi (18,7%), 2020-yil esa - 196 ta olingan namunadan - 32 tasi (16,3%) gigiyenik talablarga javob bermagan.

Gigiyenik talablarga javob bermagan namunalarda changdan keyingi o'rinda oltinugurt gazi ekanligi aniqlandi. Atmosfera havosini formaldegid moddasi bilan ifloslanish tahlilida esa shu aniqlandiki 2019-2020-yillarda olingan barcha namunalar gigiyenik talablarga javob bergan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda biz aholi turar joylari atmosfera havosini ifloslanishdan sanitariya muhofazalashda avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish va yoqilg'ilar sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko'paytirishni xususan elektr avtomobillarni, hamda

Международная научно-практическая конференция
«Достижения профилактической медицины как основа сохранения
здоровья и благополучия населения в современных условиях»

doimiy ravishda ifloslanish darajasi monitoringini olib borish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaymiz.

AVTOTRANSPORT VOSITALARINING
ATMOSFERA HAVOSIGA ZARARLI TA'SIRINI
KAMAYTIRISHDA QONUNCHILIKNI AHAMIYATI

Sherqo'ziyeva G.F., Yermatova S.G., Toshpulatov B.M., Fayziyev O'.Q.,
Abdurashidova D.J., Daniyarova N.X.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida transport tizimi muhim ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Olimlar va xalqaro ekspertlarning xulosalariga ko'ra, transport tizimining rivojlanishi iqtisodiyotni o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, atrof-muhitga zararli gazlar chiqarishning eng asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro energetika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2006-yilda global transport tizimidan atrof muhitga 5,465 million tonna karbonat angidrid gazi chiqarilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari mamlakatimizda 2014-yilga kelib 1994-yilgan nisbatan har 1000 kishiga to'g'ri keladigan avtotransport vositalari soni 16 tadan 82 taga yetganligi yoki ushbu ko'rsatkich o'rtacha 66 taga o'sganligini ko'rsatmoqda. Foydalanilayotgan transport vositalari sonining o'sishi, transport vositalaridan atrof muhitga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini shiddat bilan o'sishiga ham sabab bo'lmoqda. Ekologiya muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar natijalari tahlili davlatlarning atrof muhitga transport vositalari tomonidan chiqariladigan karbonat angidrid gazi miqdorini kamaytirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat bermoqda.